

Siz – Ulan-Ude markazidasiz

TOP-17

Nimalar qilish mumkin?

- Mahalliy Arbat bo'ylab sayr qilish
- G. S. Sidinjavov nomidagi Buryatiya akademik opera va balet teatriga tomoshaga borish – Ulan-Udeni bejizga «Milan-Ude» deb atashmaydi
- «Tengeri» diniy markazida buryat shomonlik an'analari bilan tanishish
- Ulan-Ude shahri tarixi muzeyi hamda M. N. Xangalov nomidagi Buryatiya tarixi muzeyida o'lka haqida ko'proq ma'lumot olish
- «Lvyonok» (Arsloncha) tramvayida shahar bo'ylab ekskursiyaga chiqish
- Lysaya gora (Taqir tepalik) ustidagi kuzatuv maydonchasidan shahar manzarasi, Selenga daryosi va uning atrofini tomosha qilish
- Lisaya goradagi Rinpoche Bagsha datsani – Rossiyadagi eng yirik va go'zal buddaviylik ibodatxonalaridan biriga tashrif buyurish
- «Zaluu» (buryat tilidan tarjima qilinganda – «yoshlik») zamonaviy san'at markaziga borish
- Haykallar fototo'plamini yig'ish: «Buryatiya onasi», «Buryatiya yoshligi», Geseru yodgorligi, «Mergen – kamonchi», «Sohibjamol Angara» va boshqalar

Ulan-Ude tashqarisidagi TOP mashg'ulotlar:

- Zabaykalye xalqlari etnografiya muzeyiga tashrif buyurish
- Rossiya hududidagi haqiqiy Tibet parchasi bo'lmish Ivolda datsaniga yetib borish!
- Rossiyadagi eng katta, bevosita qoyatoshga o'yib ishlangan Budda Shakyamuni tasvirini (33 metr!) ko'rish

Baykalda TOP mashg'ulotlar:

- Baykal sohilidagi termal buloqlarga ega yagona sanatoriy – «Goryachinsk» kurortida salomatlikni tiklash
- Baykal nerpalari (tyulenlari) eng ko'p to'planadigan joy – Ushkany orollariga ekskursiyaga chiqish
- Qishda: Baykal muzida konkilarda uchish, muz g'orida kechki ovqatni tanovul qilish, «Xivus» havo yostiqli kemalarida sayr qilish
- Yozda: Baykalda cho'milish, dengiz yoki jip-sayohatga chiqish, piyoda sayohatda (pohod) o'zingizni sinab ko'rish
- Yozgi vaqtlarda Baykal bo'yidagi qo'riqxonalaridan biri – «Podlemorye» hududiga tashrif



Bilasizmi...

...Ulan-Udeni ko'pincha «Baykalning sharqiy darvozasi» deb atashadi, chunki aynan shu yerdan sayyoramizdagi eng chuqur va eng yirik chuchuk suvli ko'l qirg'oqlariga yo'l olish mumkin

Nimalar olib kelish mumkin?

- Kedr yong'ochlari
- «Amta» fabrikasi konfetlari
- Nerpa ko'rinishidagi o'yinchoqlar
- Buryatiyada qazib olinadigan nefritdan yasalgan buyumlar
- Namat shippaklar



Nimalarni tatib ko'rish kerak?

- Baykal omuli
- Buuz (pozi)
- Salamat – smetana va undan tayyorlanadigan to'yimli bo'tqa
- Buryatcha shulen sho'rvasi
- Baykal baliqlaridan tayyorlangan saguday

